

O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI VA UNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Sulaymonov Laziz Sanoqul o‘g‘li

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurash masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Korrupsiyaning jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi samaradorligi hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga salbiy ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida shakllantirilgan huquqiy asoslar, institutsional mexanizmlar va amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, globallashuv, modernizatsiya, davlat siyosati, huquqiy asoslar, ochiqlik va shaffoflik, jamoatchilik nazorati, halollik madaniyati, O‘zbekiston islohotlari

Abstract: This article analyzes the issues of combating corruption, which are inextricably linked to the processes of modernization of society in the context of globalization, from a scientific, theoretical and practical perspective. The negative impact of corruption on the development of society, the effectiveness of public administration and the principles of social justice is revealed. It also covers the legal framework, institutional mechanisms and the content of the reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan to combat corruption.

Keywords: corruption, combating corruption, globalization, modernization, state policy, legal framework, openness and transparency, public control, culture of honesty, reforms in Uzbekistan

Аннотация: В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются проблемы борьбы с коррупцией, неразрывно связанные с процессами модернизации общества в контексте глобализации. Выявляется негативное влияние коррупции на развитие общества, эффективность государственного управления и принципы социальной справедливости. Также рассматриваются правовая база, институциональные механизмы и содержание реформ, проводимых в Республике Узбекистан для борьбы с коррупцией.

Ключевые слова: коррупция, борьба с коррупцией, глобализация, модернизация, государственная политика, правовая база, открытость и прозрачность, государственный контроль, культура честности, реформы в Узбекистане

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlari nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarni, balki aholining ma'naviy-madaniy hayotini yuksaltirishni ham taqozo etmoqda. Shu bilan birga, insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ayrim salbiy illatlardan voz kechish murakkab jarayon bo'lib qolmoqda. Ana shunday illatlardan biri — korrupsiya bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti va inson hayotiga muntazam salbiy ta'sir ko'rsatuvchi eng xavfli ijtimoiy muammolardan hisoblanadi.

Korrupsiya davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytirib, qonun ustuvorligiga putur yetkazadi, fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini susaytiradi hamda ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga olib keladi. Shu bois, ushbu illatni tizimli ravishda bartaraf etish, unga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish va davlatning korrupsiyaga qarshi siyosatini amalga oshirishda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish borasida izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan idoralararo markaziy xizmatlarning tashkil etilishi, mahalliy tuzilmalarga keng vakolatlar berilishi, maxsus prokuratura institutlari faoliyati, adliya ombudsmanining mustaqil va adolatli faoliyati, davlat xizmatchilarining yuksak odob-axloq standartlariga rioya etishi ustidan kuchli nazorat o'rnatilishi hamda aybdorlik prezumpsiyasi tamoyilining joriy etilishi qator davlatlar tajribasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Korrupsiyaning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotiga salbiy ta'sirini kamaytirish, ushbu illatga qarshi kurashishda samarali mexanizmlarni takomillashtirish hamda yuqori natijalarga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, davlat rahbari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishda jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini ta'minlash, aholida halollik va mas'uliyat madaniyatini shakllantirish muhim vazifa sifatida ta'kidlanmoqda¹.

Korrupsiyaga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish uchun korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish, ushbu sohada sotsiologik va falsafiy tadqiqotlar olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabat muhitini qaror toptirish, davlat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni kamaytirish hamda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'RQ-419-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar to'g'risida. <https://nrm.uz/contentf>.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”²gi hamda PF-6257-son “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabat muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan 2025-yil yakunlariga bag‘ishlangan murojaatnomasida “Takror va takror aytaman. Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid”², solishini takidlab o‘tdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida korrupsiyaga qarshi kurash masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Korrupsiya jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi samaradorligi va qonun ustuvorligiga jiddiy tahdid soluvchi ijtimoiy illat bo‘lib, unga qarshi tizimli va izchil kurashish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning mustahkam huquqiy asoslari shakllantirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”³gi Qonuni qabul qilinib, ushbu sohada davlat siyosatining asosiy prinsiplari, yo‘nalishlari va mexanizmlari belgilab berildi. Mazkur qonun korrupsiyaning oldini olish, uni aniqlash va oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlat rahbari tashabbusi bilan korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabat muhitini shakllantirish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, “ochiq davlat” tamoyillarini joriy etish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va inson omilini kamaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi ushbu sohada muhim institutsional qadam bo‘ldi. Agentlik tomonidan davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, profilaktik choralarni kuchaytirish, normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish hamda aholi va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan 2025-yil yakunlariga bag‘ishlangan murojaatnomasi. [https://president.uz/oz/lists/view/8834]

³ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419-son [https://lex.uz/docs/-3088008]

yo'lga qo'yildi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash, sud-huquq tizimi, davlat xaridlari va yer munosabatlari kabi korrupsiyaga eng ko'p moyil sohalarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat xizmatchilarining odob-axloq kodekslari joriy etilib, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazorati kuchaytirilmoqda. Shu bilan birga, aholida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, halollik va mas'uliyat tamoyillarini qaror toptirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy, institutsional va ma'naviy asoslarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonda davlat organlari bilan bir qatorda jamiyatning barcha qatlamlari faol ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabat muhitini shakllantirish mamlakatning barqaror taraqqiyoti va fuqarolarning farovon hayotini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar to'g'risida. <https://nrm.uz/contentf>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan 2025-yil yakunlariga bag'ishlangan murojaatnomasi. [<https://president.uz/oz/lists/view/8834>]
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son [<https://lex.uz/docs/-3088008>]
5. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4 (2024): 22-27.
6. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNINI VA ROLI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.26 (2024): 384-388.
7. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).
8. Xoliqulov, MQ va X.N.Jumanov. "GLOBALIZATSIYA JARAYONINING SAN'AT VA BADIY ADABIYOT VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLARGA TRANSFORMATIV TA'SIRI." *Luchshie intellektualnye issledovaniya* 40.1 (2025): 203-210.
9. Azlarova, Ozodaxon Xasanxonovna. "DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA)." *Analysis of world scientific views International Scientific Journal* 3.1 (2025): 141-149.

10. Muhammad, Xoliqulov, and Obruyeva Dilbar. "TALABA YOSHLAR ONGIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASPEKTINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI." *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS* 1.7 (2025): 27-32.
11. Muhammad, Xoliqulov, and Obruyeva Dilbar. "TALABA YOSHLAR ONGIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASPEKTINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI." *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS* 1.7 (2025): 27-32.
12. Muhammad, Xoliqulov. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI." *Scientific and innovative research in the social and humanitarian sphere* 1.3 (2025): 105-109.
13. Muhammad, X. (2025). GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI. *Scientific and innovative research in the social and humanitarian sphere*, 1(3), 105-109.
14. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g'oya. "O 'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." *Toshkent, "Cho'lon"* (2018).
15. Yaxshilikov, J., and N. Muhammadiev. "National idea-development strategy." *T., Fan nashriyoti* (2017): 158.
16. Яхшиликов, Ж. Я., and НЭ МУХАММАДИЕВ. "МИЛЛИЙ гоя ВА МАФКУРА." (2015).
17. ЯХШИЛИКОВ, ЖЯ, and НЭ МУХАММАДИЕВ. "МИЛЛИЙ гоя ВА МАФКУРА."
18. Shukhratovna, Negmatova Shakhzoda, and Oripov Khasan Abdivakhobovich. "The influence of intellectual competition to social development in the 21st century." *European science* 7 (49) (2019): 44-47.
19. Negmatova, Shakhzoda Shukhratovna, and Khasan Abdivakhobovich Oripov. "THE INFLUENCE OF INTELLECTUAL COMPETITION TO SOCIAL DEVELOPMENT IN THE 21ST CENTURY." *European Science* 7 (2019): 44-47.
20. Shukhratovna, Negmatova Shakhzoda. "Modern Scientific Thinking: Innovative And Euristic Aspects." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 3.10 (2021): 13-17.